Annotation: this article analyzes the relevance, effective organization of qualification and pedagogical practices of students of the technological educational direction, and the positive impact of this process on the quality of future pedagogical personnel. The process of practice is highlighted as an important step in strengthening theoretical knowledge in practice.

Keywords: technological education, qualification practice, pedagogical practice, higher education, training, improving the quality of education, practical skills, pedagogical cooperation

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, zamonaviy talablar asosida kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni va unga muvofiq ishlab chiqilgan 2022-yil 12-apreldagi PQ–187-sonli "Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida pedagogik kadrlar tayyorlash sifati va amaliyotga

yo'naltirilgan o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mazkur hujjatlar asosida oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar, jumladan, **malakaviy va pedagogik amaliyotlarni** sifatli tashkil etish – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Ayniqsa, **texnologik ta'lim yo'nalishida** tahsil olayotgan talabalar uchun amaliyot jarayonlari nafaqat kasbiy faoliyatga tayyorlov, balki ularning pedagogik mahorati, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalari, shuningdek, innovatsion fikrlashni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, malakaviy va pedagogik amaliyotlarni ilmiy-metodik asosda to'g'ri tashkil etish va samaradorligini ta'minlash bugungi kun ta'limi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

1. Amaliyotning maqsadi va vazifalari

Bugungi kunda texnologik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarni zamon talablari darajasida yetuk mutaxassis, malakali pedagog sifatida tayyorlash oliy ta'lim muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu jarayonning ajralmas va hal qiluvchi bosqichlaridan biri bu — talabalarni malakaviy va pedagogik amaliyotga jalb etish, ularni real ta'lim muhitida o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini amalda sinab ko'rishga imkon yaratishdir. Zero, nazariy bilim qanchalik mukammal bo'lmasin, agar u amaliy faoliyatda mustahkamlanmasa, talabada kasbiy kompetensiyalar to'liq shakllanmaydi.

Texnologik ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun malakaviy va pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi – ularni kelgusida texnologiya fanidan dars bera oladigan, o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar o'tkaza oladigan, o'z kasbiga sadoqatli, ijtimoiy mas'uliyatli pedagog sifatida shakllantirishdir. Bunda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- O'quvchilar bilan ishlash malakasini rivojlantirish;
- O'quv reja va dasturlar asosida dars ishlanmalarini tayyorlash;
- Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va baholash ko'nikmasini shakllantirish;
- Maktab muhitida pedagogik etika va madaniyatni o'rganish.

2. Amaliyot jarayonining bosqichlari

Texnologik ta'limda amaliyot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- **Tanishtiruv amaliyoti:** Talabalar maktab muhiti, o'quvchilarning xulq-atvori va pedagogik jamoa bilan tanishadilar.
- **Pedagogik amaliyot:** Talabalar mustaqil tarzda dars o'tish, sinf rahbarlik faoliyati, tashkiliy ishlarni olib borish bo'yicha tajriba orttiradilar.
- **Malakaviy amaliyot:** Talabaning barcha kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini sinovdan o'tkazish bosqichidir.

Texnologik ta'lim sohasi o'zining amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yo'nalishdagi pedagoglar nafaqat nazariy bilimga, balki turli asbob-uskunalar, dastgohlar, zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish bo'yicha puxta amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi zarur. Shu boisdan, malakaviy va pedagogik amaliyotlar aynan bu ko'nikmalarni shakllantirishda o'ziga xos maktab bo'lib xizmat qiladi. Talaba amaliyot davomida o'quvchi bilan muloqot qilish, darsni rejalashtirish, dars o'tish va baholash, shuningdek, sinfda intizomni boshqarish kabi ko'plab muhim jihatlarni o'zlashtiradi. Bu esa, uni kelajakda mustaqil ishlay oladigan, zamonaviy ta'lim standartlariga javob beradigan raqobatbardosh kadr sifatida shakllantiradi.

3. Amaliyotning samaradorligini oshirish yo'llari

Amaliyot sifatini oshirish uchun:

- Maktablar bilan yaqin hamkorlik qilish;
- Tajribali mentor-o'qituvchilarni jalb etish;
- Har bir talabaning amaliyot davomida kuzatuv daftari orqali faoliyatini baholash;
- Amaliyot yakunida tahliliy hisobotlar taqdim etish kabi usullar samarali hisoblanadi.

Texnologik ta'lim sohasi o'zining amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu yo'nalishdagi pedagoglar nafaqat nazariy bilimga, balki turli asbob-uskunalar, dastgohlar, zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish bo'yicha puxta amaliy ko'nikmaga ega bo'lishi zarur. Shu boisdan, malakaviy va pedagogik amaliyotlar aynan bu ko'nikmalarni shakllantirishda o'ziga xos maktab bo'lib xizmat qiladi. Talaba amaliyot davomida o'quvchi bilan muloqot qilish, darsni rejalashtirish, dars o'tish va baholash, shuningdek, sinfda intizomni boshqarish kabi ko'plab muhim jihatlarni o'zlashtiradi. Bu esa, uni kelajakda mustaqil ishlay oladigan, zamonaviy ta'lim standartlariga javob beradigan raqobatbardosh kadr sifatida shakllantiradi.

Amaliyotning samaradorligi ko'p jihatdan uning qanday tashkil etilganiga bog'liq. Afsuski, ba'zan amaliyotga faqatgina "hisobot topshirish" bosqichi sifatida qaraladi. Bu esa, uning mohiyatini yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun ham oliy ta'lim muassasalari, maktablar va amaliyot rahbarlari o'rtasida uzviy hamkorlik yo'lga qo'yilishi lozim. Talaba maktabga kelgan ilk kundan boshlab aniq vazifalar va rejalashtirilgan faoliyat bilan shug'ullanishi, o'zini haqiqiy o'qituvchi rovida sinab ko'rishi kerak. Aynan shundagina u o'z kasbining ijobiy va salbiy jihatlarni anglab yetadi, pedagogik mas'uliyatni teranroq his qiladi.

Shuningdek, texnologik ta'lim yo'nalishi o'zining ko'p tarmoqli, amaliyotga boyligi bilan farq qilganligi bois, amaliyot davomida talabaga nafaqat umumiy pedagogik faoliyat, balki texnologik loyihalash, mehnat ta'limi jarayonlarini tashkil qilish, texnika xavfsizligi, ekologik madaniyat kabi dolzarb yo'nalishlarda ham ko'nikmalar berilishi zarur. Bu borada ilg'or maktablar, kasb-hunar markazlari bilan hamkorlik qilish samarali yechim bo'lishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy o'qituvchi profiliga mos ravishda, talaba pedagogik amaliyot davomida raqamli texnologiyalar, interfaol usullar, STEAM yondashuv elementlarini ham o'z faoliyatida qo'llab borishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa uning pedagogik jarayonga yangicha, innovatsion ruhda yondashishiga xizmat qiladi.

Amaliyot yakunida talaba nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki kasbga bo'lgan munosabatini, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o'z ustida ishlash uchun yo'nalish oladi. Bu esa kasbiy shakllanishda muhim bosqichdir. O'z navbatida, pedagogik va malakaviy amaliyot jarayonida to'plangan tajriba bo'lajak o'qituvchining ta'lim sifatiga qo'shadigan hissasini belgilab beradi.


Xulosa

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari ularning kelajakdagi faoliyatini belgilovchi muhim bosqichdir. Amaliyot jarayonida nafaqat nazariy bilimlar mustahkamlanadi, balki haqiqiy ta'lim muhitida ishlash ko'nikmalari ham shakllanadi. Shuning uchun amaliyotni samarali tashkil etish, unga puxta tayyorgarlik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: Farmon PF–60. 28-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2022. Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: Qaror PQ–187. 12-aprel.

3. Qodirov A., Jo'rayev M. 2021. *Pedagogik amaliyot asoslari*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
4. Rasulov A. 2019. Texnologik ta'limda pedagogik amaliyotning o'rni. // *Kasb-hunar ta'limi*, №2, B. 45–48.
5. Hasanov, Sh. T., Yuldoshev, A. M. Pedagogik va malakaviy amaliyotlar: nazariy va amaliy jihatlar. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.- 144 b. 7.
6. Qodirov, B. E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi: dis.... fal. fan. dokt. (PhD). - Termiz, 2021. - 142 b.
7. Pardabayev J.E., Shog'darov N.O. "O'quvchilarning darsdan tashqari ta'lim jarayonida kasbiy imkoniyatlarini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari" Xalqaro ilmiy va amaliy konferensiya materiallari to'plami. —Termiz, 2025 -230



INSON BUYRAGINING ANATOMIK TUZILISHI VA FUNKSIONAL
BIRLIGI

Parmonov Doston Rustamovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali talabasi

parmonovdoston666@gmail.com

Chorieva Zulfiya Yusupovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Anatomiya va klinik anatomiya kafedrası assistenti

Anotatsiya: Mazkur maqolada inson buyragining anatomik tuzilishi va funksional birligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Unda buyraklarning tashqi va ichki tuzilishi, joylashuvi, qon bilan ta'minlanishi, nefronlarning tuzilishi va vazifalari keng yoritilgan. Shuningdek, buyraklarning gormonal va gomeostatik funksiyalari, siydik hosil bo'lish bosqichlari hamda organizmdagi suyuqlik va elektrolit muvozanatini saqlashdagi o'rni ilmiy-ommabop tarzda tushuntirilgan. Ushbu maqola tibbiyot sohasida o'qiyotgan talabalar uchun buyraklar fiziologiyasi va morfologiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Buyrak, nefron, anatomik tuzilish, siydik hosil bo'lish, gomeostaz, Bowman kapsulasi, glomerula, proksimal naycha, Henle halqasi, eritropoetin, renin, buyrak jomi, piyolacha, elektrolit muvozanati.

Kirish. Buyrak — inson organizmidagi eng muhim hayotiy a'zoldan biri bo'lib, organizmdagi suyuqlik va elektrolit muvozanatini saqlash, ortiqcha moddalarni chiqarib yuborish, shuningdek, gormonal funksiyalarni bajarishda asosiy rol o'ynaydi. Har bir sog'lom odamda ikkita buyrak bo'lib, ular orqa bel sohasida, umurtqa pog'onasining har ikki tomonida joylashgan. Buyrakning asosiy funksional birligi nefron deb ataladi.

Asosiy qism.

Inson tanasidagi barcha organlar ichida buyraklar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat chiqaruv tizimining asosiy a'zosi, balki gomeostazni saqlovchi, qon bosimi, qon tarkibi va suyuqlik muvozanatini tartibga soluvchi murakkab funksiyalarni bajaradi. Odatda inson tanasida ikkita buyrak mavjud bo'lib, ular orqa bel sohasida, umurtqa pog'onasining ikki tomonida joylashgan bo'ladi. O'ng buyrak chap buyrakka nisbatan bir oz pastroq joylashgan, bu holat jigar organi bilan bog'liq. Buyraklar tashqi ko'rinishida loviyaga o'xshash shaklda bo'lib, o'rtacha kattaligi 10-12 santimetr, eni 5-6 santimetr, qalinligi 3 santimetr atrofida bo'ladi. Har bir buyrak o'rtacha 120-150 gramm og'irlikka ega. Buyrak tashqi tomondan mustahkam kapsula bilan o'ralgan bo'lib, u buyrak to'qimasini mexanik

shikastlanishlardan himoya qiladi. Buyrakning medial tomonida maxsus chuqurlik – buyrak darvozasi mavjud bo‘lib, bu yerda buyrakka arteriyalar kiradi, venalar va siydik yo‘li esa chiqadi. Aynan shu soha orqali buyrak boshqa tizimlar bilan bog‘lanadi. Buyraklar arteriyalardan juda ko‘p miqdorda qon qabul qiladi: yurakdan chiqarilayotgan umumiy qonning taxminan chorak qismi aynan buyraklardan o‘tadi. Bu esa buyraklarning organizmda qanday muhim vazifa bajarishini ko‘rsatadi. Buyrakning ichki tuzilishiga nazar soladigan bo‘lsak, u ikki asosiy qatlamdan tashkil topgan: po‘stloq va mag‘iz qavat. Po‘stloq qavat buyrakning tashqi qismida joylashgan bo‘lib, eng asosiy funksional birliklar – nefronlarning katta qismi aynan shu yerda joylashgan. Mag‘iz qavat esa ichkari tomonda bo‘lib, u konussimon shakldagi buyrak piramidalari va ular orasidagi ustunlardan iborat. Piramidaning uchi buyrak so‘rg‘ichi deb ataladi va u orqali siydik maxsus tuzilmalar – piyolachalarga o‘tadi. Kichik piyolachalar yirik piyolachalarga birlashadi, ular esa buyrak jomini tashkil etadi. Buyrak jomi siydikni siydik yo‘liga o‘tkazadi va u orqali siydik siydik pufagiga yo‘naltiriladi. Buyraklarning eng muhim va murakkab funksiyalarini ta‘minlovchi asosiy tuzilma bu – nefron hisoblanadi. Har bir buyrakda 1-1,5 milliongacha nefron mavjud bo‘lib, ular qonning filtratsiyasi, foydali moddalarning qayta so‘rilishi, keraksiz va zararli moddalarni chiqarilishi kabi jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Har bir nefron Bowman kapsulasi, glomerula, proksimal naycha, Henle halqasi, distal naycha va yig‘uvchi naychadan tashkil topgan. Glomerulada yuqori bosim ostida qon filtratsiyasi sodir bo‘ladi. Ushbu filtratsiya natijasida qon plazmasining bir qismi kapsulaga o‘tadi va bu birlamchi siydikni tashkil qiladi. Proksimal naycha orqali o‘tayotganida bu siydik tarkibidagi suv, glyukoza, aminokislotalar va boshqa kerakli moddalarning katta qismi qayta qon oqimiga so‘riladi. Henle halqasi suv va tuzlar muvozanatini nazorat qiladi. Distal naycha esa ortiqcha kation va anionlar bilan almashinishda, ya‘ni sekretsiyada ishtirok etadi. Yig‘uvchi naychalar esa yakuniy siydikni to‘plab, uni buyrak piramidalari orqali piyolachalarga olib boradi. Buyraklar faqatgina chiqaruv a‘zosi bo‘lib qolmasdan, muhim gormonal funksiyalarni ham bajaradi. Masalan, renin gormoni qon bosimini boshqarishda, eritropoetin esa suyak iligida qizil qon tanachalarining yetilishi va ko‘payishida ishtirok etadi. Bundan tashqari, buyraklarda D vitamini faol shaklga aylantiriladi, bu esa suyaklar salomatligida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, buyraklar endokrin tizim bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, turli metabolik jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Buyraklarning yana bir muhim funksiyasi bu organizmda suyuqliklar va elektrolitlar muvozanatini saqlab turishdir. Ular natriy, kaliy, kalsiy, xlor kabi muhim ionlarning darajasini nazorat qiladi. Buyraklar yordamida organizmdagi ortiqcha suv chiqarib tashlanadi yoki suv tanqisligi holatida, aksincha, tutib turiladi.

Shu bilan birga, ularning pH darajasini me'yorda ushlab turishdagi roli ham katta, chunki ular ortiqcha vodorod ionlarini chiqarish orqali organizmning kislotali-ishqoriy muvozanatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, buyraklar organizmning hayot faoliyatida ajralmas o'ringa ega bo'lgan juft a'zodir. Ular nafaqat modda almashinuvining chiqindi mahsulotlarini chiqarib yuboradi, balki ichki muhitning barqarorligini ta'minlab turadi. Buyraklarning sog'lom faoliyati umumiy sog'liqning kafolati hisoblanadi. Ularning murakkab va mukammal tuzilishi, puxta muvofiqlashtirilgan funksiyalari organizmda yuzlab muhim jarayonlarning to'g'ri kechishida muhim o'rin tutadi. Shu bois, buyraklarning anatomiyasi va fiziologiyasini puxta o'rganish har bir tibbiyot talabasi uchun zarur va asosiy bilimlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov M.X., Karimov N.M., Qurbonov R.X. Normal anatomiya. 1-kitob. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2021. – 412 bet
2. Qodirov R.Q., Axmedov M.X., Jo'rayev R.X. Inson anatomiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2018. – 378 bet.
3. Tursunov B.T., G'ofurova G.A., Qayumova D.R. Odam fiziologiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. – 464 bet.
4. Tortora G.J., Derrickson B.H. Principles of Anatomy and Physiology. 15th edition. – Wiley, 2017.
5. Marieb E.N., Hoehn K. Human Anatomy & Physiology. 11th edition. – Pearson, 2018.
6. Musayev B.M., Eshonqulov Z.K., Egamberdiyeva O.M. Biologiya (Odam va uning salomatligi). – Toshkent: «O'qituvchi», 2019. – 296 bet.
7. Shermatov Sh.S., Yuldasheva M.S. Gistologiya. – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2022. – 280 bet.
8. WHO (World Health Organization). Kidney Health and Function. – Geneva: WHO Publications, 2020.

FRANSUZ MAQOLLARINING PRAGMATIK SEMANTIKASI: MASLAHATNING
TURLI IFODALANISH SHAKLLARI

Norboyeva Nuriniso Usan qizi

nnuriniso2001@gmail.com +998941982600

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuz maqollarining pragmatik-semantik xususiyatlari maslahat akti doirasida tahlil qilinadi. Maslahat ijtimoiy-nutqiy hodisa sifatida insonlararo muloqotda muhim rol o'ynaydi. Fransuz maqollarida maslahat turli usullarda – bevosita, bilvosita, ramziy va ogohlantirish shakllarida ifodalanadi. Tadqiqot davomida nutqiy aktlar nazariyasi doirasida maslahatning illokutsion kuchi, ularning semantik maydoni hamda jamiyatdagi kommunikativ funksiyasi yoritiladi. Maqolada ko'plab fransuz maqollari misolida maslahatning pragmatik vosita sifatidagi o'ziga xos jihatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: fransuz maqollari, pragmatik semantika, maslahat akti, nutqiy aktlar nazariyasi, bilvosita maslahat, bevosita maslahat.

Har bir xalqning tilida maqollar xalq donishmandligi, tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarining qisqa, ammo mazmunli shaklda mujassam ko'rinishidir [8]. Fransuz tili ham bunday boy merosga ega bo'lib, undagi maqollar insoniy faoliyatning barcha sohalarini qamrab oladi [2]. Ular orqali nafaqat axloqiy-etik qarashlar, balki ijtimoiy munosabatlar, xulq-atvor normalari va madaniy qadriyatlar ham ifodalanadi [5; 6]. Maqollar kommunikativ jihatdan turli vazifalarni bajaradi. Ularning muhim pragmatik xususiyatlaridan biri – maslahat berish aktidir. Maslahat berish nutqiy akt sifatida suhbatdoshning manfaatini ko'zlab, unga to'g'ri yo'l ko'rsatish, ehtimoliy oqibatlardan ogohlantirish yoki muayyan qarorga undashni o'z ichiga oladi.

Nutqiy aktlar nazariyasi (J. Austin, J. Searle, D. Vanderveken)ga ko'ra, har bir nutqiy hodisa nafaqat informativ, balki illokutsion kuchga ham ega [3; 9; 10]. Maslahat akti *komissiv* yoki *direktiv* nutqiy akt sifatida qaraladi [7]. Direktiv akt sifatida maslahat suhbatdoshni muayyan xatti-harakatga undaydi, biroq majburiy tusda emas, balki ixtiyoriy, yumshoq shaklda amalga oshiriladi. Maslahatning pragmatik mohiyati suhbatdoshning manfaatini ko'zlash, uning xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashdan iborat. Maqollarda maslahat odatda universal, hayotiy tajribaga tayangan holda ifodalanadi [2; 8].

Bevosita maslahat – bu maslahatning eng sodda va aniq ko'rinishi bo'lib, unda nasihat ochiq, ravshan, hech qanday ramz yoki yashirin ma'nosiz, to'g'ridan-to'g'ri bayon qilinadi. Bunday maqollar tinglovchidan o'ylab topishni, metaforani sharhlashni talab qilmaydi, balki amaliy hayotiy qoida sifatida qabul qilinadi. Bevosita maslahat maqollarda ochiq va ravshan tarzda beriladi.

“Mieux vaut prévenir que guérir.” –“Davolagandan ko'ra oldini olganyaxshi.”Sog'liq va ehtiyotkorlikka undovchi bevosita maslahat.

“Qui veut voyager loin ménage sa monture.” –“Uzoq yurmoqchi bo'lgan kishi otini asraydi.”
Ish yoki hayotda me'yorni saqlash zarurligini tavsiya etadi.

“Il ne faut pas mettre la charrue avant les bœufs.” –“Qo'shni ho'kizlardan oldin qo'yib bo'lmaydi.” Ishni tartib bilan bajarish haqida bevosita maslahat.

Bevosita maslahatning xususiyati shundaki, u inkor yoki ramziy vositalarsiz, aniq axloqiy yoki amaliy yo'l-yo'riqni bildiradi.

Bilvosita maslahat – bu maslahatning yashirin, ramziy yoki obrazli shaklda ifodalanishi bo‘lib, unda nasihat ochiq ko‘rinishda emas, balki qiyoslash, metafora, ramz, hayvon yoki tabiat obrazlari orqali tinglovchiga yetkaziladi. Bunday maqollarni anglash uchun mantiqiy tafakkur, tajriba va kontekst zarur. Bilvosita maslahat odatda ramziy, obrazli yoki qiyosiy shaklda ifodalanadi.

“Ne remets pas à demain ce que tu peux faire aujourd’hui.” – “Bugun qiladigan ishni ertaga qoldirma.” Vaqtni qadrlash haqida bilvosita maslahat.

“On ne change pas une équipe qui gagne.” – “Yutayotgan jamoani almashtirmaydilar.” Boridan qanoatlanish va keraksiz o‘zgarishlarga qarshi maslahat.

“Quand on parle du loup, on en voit la queue.” – “Bo‘ri haqida gapirilsa, dumini ko‘rsatadi.” Vaqtni va odamlarning odatini inobatga olishga undovchi maslahat. Bilvosita maslahat suhbatdoshni mulohaza qilishga majbur qiladi, unga qaror qabul qilish erkinligini qoldiradi.

Maslahat ko‘pincha ogohlantirish shaklida ifodalanadi. Maslahatning ogohlantirish shakli – bu maslahatning o‘ziga xos turi bo‘lib, unda nasihat xatodan qaytarish, ehtimoliy salbiy oqibatdan ogohlantirish tarzida ifodalanadi. Bunday maqollar insonni noto‘g‘ri yo‘l tanlashdan, zararli odatlardan yoki xavfli qarorlardan tiyishga qaratilgan.

“Qui sème le vent récolte la tempête.” – “Shamol ekkan bo‘ron o‘rib oladi.” Noto‘g‘ri xatti-harakat oqibatidan ogohlantirish orqali maslahat.

“Un homme averti en vaut deux.” – “Ogoh kishi ikki kishi qiymatiga teng.” Xavf-xatardan ogoh bo‘lishga maslahat.

“Pierre qui roule n’amasse pas mousse.” – “Aylanib yuruvchi toshga mox o‘smas.” Beqarorlikning salbiy oqibatlari haqida ogohlantiruvchi maslahat. Bu turdagi maslahatlarning semantikasi salbiy oqibatni oldini olishga qaratilgan. Bu turdagi maslahatlarning semantikasi salbiy oqibatni oldini olishga qaratilgan.

Fransuz maqollarining eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, undagi maslahatlar hayotiy kuzatuvlar, insonlarning kundalik tajribalari, tarixiy voqealar va avlodlardan avlodlarga o‘tgan donolik asosida shakllanadi [2; 5].

L’expérience est la mère de la science. – “Tajriba – ilmning onasi.” Tajribaga tayanish haqida maslahat.

“Petit à petit, l’oiseau fait son nid.” – “Qush inini asta-sekin qiladi.” Sabrlilik va izchillikka da‘vat.

“C’est en forgeant qu’on devient forgeron.” – “Temirchilar temir uribgina temirchi bo‘ladi.” Mashq va mehnat orqali o‘rganishga maslahat.

Xulosa qilib aytilganda fransuz maqollarida maslahatning turli ifodalanish shakllari mavjud. Ular bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri nasihat), bilvosita (ramz va metafora orqali), ramziy (hayvon, tabiat va kundalik buyum obrazlarida), hamda ogohlantirish (xatolikdan qaytaruvchi) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Maslahatning semantik asoslari shu millat maqollarida ijtimoiy tajriba, xalq donoligi, axloqiy qadriyatlar va hayotiy kuzatuvlarga tayangan bo‘lib, ular fransuz xalqining madaniy xotirasi va kollektiv ongida mustahkam joy olgan. Pragmatik nuqtai nazardan fransuz maqollari suhbatdoshni ixtiyoriy, ammo samarali tarzda xatti-harakatga undaydi. Ular buyruqdan farqli ravishda yumshoq direktiv xususiyat kasb etadi va tinglovchini o‘ylashga, qaror qabul qilishga zamin yaratadi. Maslahat aktining samaradorligi uning qisqa, obrazli va universal ifoda shaklida mujassamligida ko‘rinadi. Shu tufayli maqollar turli kommunikativ vaziyatlarda tez eslab qolinadi va keng qo‘llanadi. Ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘rni shundan iboratki, fransuz maqollari jamiyatda tarbiyaviy, axloqiy va psixologik vazifalarni bajaradi; ular yoshlarni hayotiy

tajribaga tayyorlash, jamiyat a'zolarini ijtimoiy muvozanatga chorlash, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi [7; 9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anscombe J.-C., Ducrot O. *L'argumentation dans la langue*. Bruxelles: Mardaga, 1983.
2. Arnaud P. *Les proverbes français: analyse linguistique et pragmatique*. Paris: PUF, 2012.
3. Austin J. *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962.
4. Compagnon A. *La seconde main ou le travail de la citation*. Paris: Seuil, 1979.
5. Gourmont R. de. *La culture des idées*. Paris: Mercure de France, 1900.
6. Greimas A. J. *Sémantique structurale*. Paris: Larousse, 1966.
7. Martin R. *Pragmatique linguistique*. Paris: PUF, 1998.
8. Mieder W. *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press, 2004.
9. Searle J. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: CUP, 1969.
10. Vanderveken D. *Meaning and Speech Acts*. Cambridge: CUP, 1990.

SYNTHESIS OF THE COORDINATION COMPOUND OF Zn(II) ION WITH
KETOROLAC**Karimova Momojon Egamberganovna**

PhD student the Khorezm Ma'mun Academy

Khudoyberganov Aybek Ikromovich

PhD., Senior Scientific Researcher, Khorezm Ma'mun Academy

Annotatsiya. Ushbu maqolada rux nitrat va ketorolak asosida hosil qilingan yangi koordinatsion birikmaning sintezi va fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Kompleks birikma $[Zn(ket)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ suv va etanol aralashmasida $pH = 5.5-6$ sharoitida sintez qilindi. Oq kristall holda cho'kma sifatida ajralib chiqdi. Sintez qilingan modda IR-spektroskopiya, UV-Vis va elementar analiz metodlari yordamida tahlil qilindi. Natijalar birikmada Zn-O koordinatsion bog'lar hosil bo'lganini, ketorolak esa karboksil guruhi orqali rux ioniga bog'langanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari yangi koordinatsion birikmalar sintezining farmatsevtika va noorganik kimyo sohalaridagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Ketorolak, formamid, atsetamid, karbamid, nikotinamid, kompleks birikma, aralash-ligandli kompleks birikma, metall kompleks, IR-spektroskopiya, UV-Vis, element analiz.

Аннотация. В данной статье представлен синтез и физико-химическая характеристика нового координационного соединения, полученного из нитрата цинка и кеторолака. Соединение $[Zn(ket)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ было синтезировано в смеси вода-этанол при $pH 5,5-6$ и выделено в виде белых кристаллов. Синтезированное соединение было проанализировано с использованием ИК-спектроскопии, УФ-видимой спектроскопии и элементного анализа. Результаты подтвердили образование координационных связей Zn-O, при этом кеторolak выступает в качестве лиганда через свою карбоксильную группу. В исследовании подчеркивается значимость синтеза новых координационных соединений для применения в фармацевтической и неорганической химии.

Ключевые слова: Кеторolak, формаид, ацетамид, карбамид, никотинаид, комплексное соединение, смешанно-лигандное комплексное соединение, металлический комплекс, ИК-спектроскопия, УФ-видимая спектроскопия, элементный анализ.

Abstract: This article presents the synthesis and physicochemical characterization of a novel coordination compound formed from zinc nitrate and ketorolac. The compound $[Zn(ket)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ was synthesized in a water-ethanol mixture under pH conditions of 5.5-6 and precipitated as white crystals. The synthesized compound was analyzed using IR spectroscopy, UV-Vis spectroscopy, and elemental analysis. The results confirmed the formation of Zn-O coordination bonds, with ketorolac acting as a ligand through its carboxyl group. The study emphasizes the significance of synthesizing new coordination compounds for applications in pharmaceutical and inorganic chemistry.

Keywords: Ketorolac, formamide, coordination compound, mixed-ligand coordination compound, metal complex, IR spectroscopy (Infrared spectroscopy), UV-Vis spectroscopy (Ultraviolet-Visible spectroscopy), elemental analysis.


Coordination chemistry is a rapidly expanding field of research with significant applications in pharmaceuticals, biomedicine, and inorganic chemistry. In recent years, complex compounds

formed between bioactive substances and metal ions have garnered considerable attention due to their pronounced antibacterial and antiviral activities. Among these, the coordination complex of ketorolac with zinc (Zn) represents a promising avenue for enhancing the composition and pharmacological properties of biologically active drugs.

Ketorolac is a nonsteroidal anti-inflammatory drug (NSAID) that contains a carboxyl group capable of forming a coordination bond with a zinc atom. With its $3d^{10}$ electron configuration, the zinc atom typically coordinates with up to six ligands, enabling it to form stable complexes with a variety of bioactive molecules. These zinc-centered complexes can also incorporate additional ligands, such as urea, ethylenediamine, or monoethanolamine, to form mixed-ligand structures. Scientific literature confirms that newly synthesized coordination compounds of the type $[Zn(\text{ketorolac})(\text{ligand})_n]$ exhibit greater antibacterial activity compared to ketorolac alone. The coordination bonds formed between the central zinc atom and oxygen atoms are a key factor determining the stability and biological efficacy of these promising compounds. This article analyzes the structure, synthesis method, and the antibacterial and pharmacological properties of the coordination complex of ketorolac with zinc. This research serves as a critical step in exploring the potential of such complexes as novel therapeutic agents.

Research Methodology: Initially, all necessary reagents and glassware required for the synthesis were collected, including $Zn(NO_3)_2 \cdot xH_2O$, $C_{15}H_{13}NO_3$ (ketorolac), ethanol or dimethylformamide (DMF), NaOH, distilled water, and appropriate laboratory vessels. The synthesis of the coordination compound with the composition $[Zn(\text{ket})_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ was carried out according to the procedure described in [1,2]. For complex formation, 0.002 mol of ketorolac, used as a ligand, was dissolved in 20 mL of ethanol (or an ethanol–water mixture) in a separate vessel. The solution was stirred using a magnetic stirrer until complete dissolution to prepare a saturated ligand solution. In the next step, 0.001 mol of $Zn(NO_3)_2 \cdot 6H_2O$ was accurately weighed and dissolved in 20 mL of distilled water. Both solutions were mixed together under mild heating conditions (50–60 °C). The pH of the mixture was maintained at approximately 6.0–6.5 throughout the reaction. The reaction mixture was continuously stirred for 2–3 hours. After completion, the solution was allowed to cool to room temperature or placed in a refrigerator. Within 24–48 hours, a white crystalline precipitate formed. The resulting precipitate was filtered, washed with a water–ethanol mixture, and dried in a desiccator for three days. The final product was stored for further analysis [3].

The reaction can be represented by the following equation:



HL – the ketorolac molecule in its protonated carboxylic acid form.

L^- – denotes the deprotonated form of ketorolac.

$[Zn(L)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ – the coordination compound, which consists of two ketorolac ligands and two nitrate ions in the form of a salt.

The elemental composition of the synthesized coordination compound $[Zn(L)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ was determined by elemental analysis [4].


Table 1

Elemental Analysis of the $[Zn(L)_2](NO_3)_2 \cdot 2H_2O$ Coordination Compound

Molecular Formula of the Coordination Compound	Element	Theoretical (%)	Experimental (%)
	C	52,94	52,44

[Zn(L) ₂](NO ₃) ₂ ·2H ₂ O	H	3,89	3,44
Molecular formula:	N	7,72	7,37
C ₃₂ H ₂₈ N ₄ O ₁₂ Zn	O	26,45	26,05
M=726 g/mol	Zn	9,01	8,54

In some sources, the synthesis of the ketorolac–zinc coordination compound is also represented by the following reaction equation



HL – ketorolac in its non-ionized (protonated) carboxylic acid form.

L⁻ – the deprotonated ketorolac (carboxylate anion).

[Zn(L)₂] – the synthesized complex containing two ligands coordinated to a Zn(II) center.

Conclusion: In this study, a novel coordination compound, [Zn(ket)₂](NO₃)₂·2H₂O, was successfully synthesized from zinc(II) nitrate and ketorolac. The synthesis was carried out in a water–ethanol medium at pH 5.5–6, resulting in the formation of a white crystalline precipitate. The physicochemical properties of the compound were investigated using IR spectroscopy, UV-Vis spectroscopy, and elemental analysis.

REFERENCES:

1. K.Jagadesh Babu , Dasari Ayodhya, Shivaraj. Comprehensive investigation of Co(II), Ni(II) and Cu(II) complexes derived from a novel Schiff base: Synthesis, characterization, DNA interactions, ADME profiling, molecular docking, and in-vitro biological evaluation // [Results in Chemistry Volume 6](#), December 2023, 101110. <https://doi.org/10.1016/j.rechem.2023.101110>
2. A.H.Mohamed, H.A.R.Laila, M.A.M.Abdel-Mawgoud, K.M.Shaaban, Zinc(II) complexes derived from ibuprofen Schiff base ligands: synthesis, characterization and biological activity, *Sohag J. Sci.* 7 (2022) 123–130. <https://doi.org/10.21608/sjsci.2022.151732.1013>
3. R.Manikandan, P. Viswanathamurthi, K. Velmurugan, R. Nandhakumar, T. Hashimoto, A. Endo, Synthesis, characterization and crystal structure of cobalt (III) complexes containing 2-acetylpyridine thiosemicarbazones: DNA/protein interaction, radical scavenging and cytotoxic activities, *J. Photochem. Photobiol. B* 130 (2014) 205–216. <https://doi.org/10.1016/j.jphotobiol.2013.11.008>
4. M.G.Abdul, G.Kamble, R.N.Nageswara, R.Nagaraju, Structural, spectral and biological studies of (E)-2-((2-(benzo[d]thiazol-2-yl)hydrazineylidene)methyl)- 4,6-dibromophenol (HL) and its metal complexes of Mn(II) Cu(II), Co(II), Ni(II), and Zn(II), *J. Results Chem.* 6 (2023), 101001. <https://doi.org/10.1016/j.rechem.2023.101001>

LATENT COURSE OF LIVER FIBROSIS IN PATIENTS WITH CHRONIC HEPATITIS B: COMPARATIVE EVALUATION OF NONINVASIVE DIAGNOSTIC METHODS (APRI, FIB-4 AND FIBROSCAN)

Dsc, Professor Mirzayeva Mehriniso Rizoyevna

Head of the Department of Epidemiology, Bukhara State Medical Institute.

(Mirzayeva4353@gmail.com)

Yodgorova Maqsad Shukhratovna

2nd year clinical resident, Bukhara State Medical University

(maqsadyodgorova@gmail.com)

ABSTRACT: Chronic hepatitis B (CHB) remains a significant global health burden, affecting approximately 296 million people worldwide. The progression of liver fibrosis in CHB patients often follows a latent course, making early detection crucial for preventing cirrhosis and hepatocellular carcinoma. While liver biopsy remains the gold standard for fibrosis assessment, its invasive nature has prompted the development of noninvasive diagnostic methods. This study aims to comparatively evaluate the diagnostic accuracy, clinical utility, and cost-effectiveness of three noninvasive methods—APRI (AST to Platelet Ratio Index), FIB-4 (Fibrosis-4 Index), and FibroScan (transient elastography)—in detecting and monitoring the latent progression of liver fibrosis in CHB patients.

Keywords: Chronic hepatitis B, liver fibrosis, noninvasive diagnosis, APRI, FIB-4, FibroScan, transient elastography

Background and Significance

Chronic hepatitis B virus (HBV) infection represents one of the most prevalent chronic viral infections globally, with an estimated 296 million individuals living with chronic hepatitis B as of 2024. The disease burden is particularly pronounced in the Asia-Pacific region and sub-Saharan Africa, where prevalence rates exceed 5-10% of the general population. The natural history of CHB is characterized by a dynamic interplay between viral replication and host immune response, leading to varying degrees of hepatic inflammation and fibrosis progression.

The development of liver fibrosis in CHB patients typically follows an insidious, latent course spanning years to decades. This silent progression poses significant challenges for clinical management, as many patients remain asymptomatic until advanced stages of disease. The rate of fibrosis progression varies considerably among individuals, influenced by factors including viral load, HBeAg status, genotype, host genetic factors, concurrent infections, alcohol consumption, and metabolic comorbidities. Without timely intervention, approximately 20-30% of CHB patients will progress to cirrhosis, with an annual risk of hepatocellular carcinoma development of 2-5% in cirrhotic patients.

The accurate assessment of liver fibrosis is crucial for several clinical decisions in CHB management. First, it determines the need for antiviral therapy initiation, as current guidelines recommend treatment for patients with significant fibrosis ($\geq F2$) regardless of ALT levels. Second, it guides the intensity of surveillance for complications such as hepatocellular carcinoma and portal hypertension. Third, it provides prognostic information regarding disease trajectory and response to therapy. Fourth, it enables monitoring of fibrosis regression following successful antiviral treatment.

Evolution of Fibrosis Assessment Methods

Historically, liver biopsy has been considered the gold standard for fibrosis assessment, providing direct visualization of hepatic architecture and the extent of fibrosis deposition. The procedure allows for comprehensive evaluation using established scoring systems such as METAVIR, Ishak, or Knodell scores. However, liver biopsy has significant limitations that restrict its widespread application in routine clinical practice.

The invasive nature of liver biopsy carries inherent risks, including pain (reported in 20-30% of patients), bleeding (0.5%), and rare but serious complications such as pneumothorax or peritonitis. The procedure requires hospitalization or day-case admission, trained personnel, and imaging guidance, making it resource-intensive and costly. Furthermore, sampling error is a well-recognized limitation, as the biopsy specimen represents only 1/50,000th of the liver volume. Studies have demonstrated significant intra-observer and inter-observer variability in histological interpretation, with concordance rates of 70-80% even among experienced pathologists.

These limitations have driven the development of noninvasive methods for fibrosis assessment over the past two decades. The ideal noninvasive test should be accurate, reproducible, readily available, cost-effective, and able to reflect the entire liver rather than a small sample. Current noninvasive approaches can be broadly categorized into serum-based biomarkers and imaging-based techniques.

Serum-Based Biomarkers: APRI and FIB-4

Serum biomarkers for fibrosis assessment can be classified as direct or indirect markers. Direct markers reflect extracellular matrix turnover and include molecules such as hyaluronic acid, procollagen III N-terminal peptide, and tissue inhibitor of metalloproteinase-1. Indirect markers reflect liver function alterations secondary to fibrosis and include routine laboratory parameters such as aminotransferases, platelet count, and coagulation factors.

The AST to Platelet Ratio Index (APRI) was first described in 2003 as a simple, inexpensive tool for predicting significant fibrosis and cirrhosis in chronic hepatitis C patients. The formula incorporates two readily available laboratory parameters: $APRI = [(AST/Upper\ Limit\ of\ Normal) / Platelet\ count\ (10^9/L)] \times 100$. The biological rationale underlying APRI relates to the elevation of AST with progressive fibrosis and the reduction in platelet count due to portal hypertension and decreased thrombopoietin production.

The Fibrosis-4 Index (FIB-4) was initially developed for HIV/HCV co-infected patients but has been validated across various chronic liver diseases. The formula incorporates age in addition to laboratory parameters: $FIB-4 = (Age \times AST) / (Platelet\ count \times \sqrt{ALT})$. The inclusion of age accounts for the natural progression of fibrosis over time, potentially improving diagnostic accuracy in older populations.

Both APRI and FIB-4 offer several advantages in clinical practice. They utilize routine laboratory tests available in most healthcare settings, incur minimal additional cost, can be calculated instantly using online calculators or electronic health records, and allow for repeated measurements to monitor disease progression or treatment response. However, their diagnostic performance may be influenced by factors unrelated to fibrosis, such as acute hepatitis flares, extrahepatic conditions affecting platelet count, or concurrent medications.

Imaging-Based Assessment: FibroScan

Transient elastography, commercially available as FibroScan, represents a paradigm shift in noninvasive fibrosis assessment. The technology, introduced in 2003, measures liver stiffness as a surrogate marker for fibrosis. The device uses a probe that emits low-frequency elastic waves

and ultrasound waves. The velocity of elastic wave propagation through liver tissue correlates with tissue stiffness, which increases with fibrosis progression.

FibroScan offers several technical advantages over serum markers. It provides immediate results at the point of care, examines a liver volume approximately 100 times larger than a biopsy specimen, and demonstrates excellent reproducibility with intra-observer and inter-observer agreement exceeding 95%. The procedure is painless, takes 5-10 minutes to perform, and can be repeated frequently without risk.

However, FibroScan has limitations that must be considered. Technical failure or unreliable results occur in 15-20% of examinations, particularly in obese patients, those with ascites, or narrow intercostal spaces. Liver stiffness can be influenced by factors beyond fibrosis, including acute inflammation, cholestasis, congestion, and postprandial state. The equipment requires significant capital investment and trained operators, potentially limiting accessibility in resource-constrained settings.

The Latent Course of Fibrosis in CHB

The progression of liver fibrosis in CHB follows a complex, often unpredictable trajectory influenced by viral and host factors. Unlike other chronic liver diseases with relatively linear progression, CHB-related fibrosis may accelerate, stabilize, or even regress depending on the phase of infection and immune activity.

Study Rationale and Objectives

Despite the availability of multiple noninvasive fibrosis assessment methods, their comparative performance specifically in CHB patients with latent disease progression remains incompletely characterized. Previous studies have primarily focused on individual methods or specific patient subgroups, with limited data on longitudinal performance in monitoring fibrosis evolution.

This thesis addresses several critical knowledge gaps in the field. First, it provides a comprehensive comparison of three widely available noninvasive methods in a large, well-characterized CHB cohort. Second, it evaluates the performance of these methods across different phases of CHB infection, recognizing the disease's heterogeneous nature. Third, it assesses the ability of each method to detect fibrosis progression over time, crucial for identifying patients requiring treatment escalation. Fourth, it explores optimal combinations and sequential testing strategies to maximize diagnostic accuracy while considering resource utilization.

The primary objective is to determine the comparative diagnostic accuracy of APRI, FIB-4, and FibroScan in detecting significant fibrosis ($\geq F2$) and cirrhosis (F4) in CHB patients, using liver biopsy as the reference standard. Secondary objectives include evaluating the performance of combined testing strategies, assessing the ability to monitor fibrosis progression over 36 months, identifying factors affecting diagnostic performance, determining cost-effectiveness in different healthcare settings, and developing evidence-based algorithms for noninvasive fibrosis assessment in CHB.

